

O‘ZBEK TILINI XORIJIY TIL SIFATIDA O‘QITISH TAMOYILLARI

Pulatova Dilfuza Zaxitdjanovna

O‘zDJTU katta o‘qituvchisi

dilfuzapulato31@mail.ru

tel.: +998909814870

Annotatsiya

Ushbu maqolada xorijlik talabalarga o‘zbek tilini o‘rgatishda tilning o‘ziga xos xususiyatlari, uning orfoepik va orfografik me‘yorlarining interferensiyasi va uni bartaraf etish usullari ilgari suriladi. Shuningdek, o‘zbek tilini xorijiy til sifatida o‘rganishda grammatikaning alohida o‘rni belgilanadi hamda grammatikasiz tildan to‘liq foydalanishning iloji yo‘qligi alohida ta’kidlanadi.

Kalit so‘zlar: orfoepiya, orfografiya, interferensiya, nutq, kommunikatsiya, kompetensiya.

Bugungi globallashuv sharoitida tillarni o‘rganishga bo‘lgan ehtiyoj tobora ortib bormoqda. O‘zbekistonning xalqaro maydondagi nufuzi oshib borishi, turizm, iqtisodiy va madaniy aloqalarning kengayishi natijasida o‘zbek tilini xorijiy til sifatida o‘rganishga qiziqish kuchaymoqda. Shu sababli o‘zbek tilini xorijliklarga samarali o‘qitish metodikasini takomillashtirish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. O‘zbek tilini xorijiy til sifatida o‘qitish jarayoni ma’lum didaktik va lingvistik tamoyillarga asoslanadi. Ushbu tamoyillar ta’lim jarayonining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Chet tillarni o‘qitish metodikasi – bu “ta’lim tizimining qonuniyatlari, maqsad va mazmuni, vosita, yo‘l hamda usullarini tadqiq qiladigan, shuningdek, xorijiy til materiali asosida ta’lim va tarbiya jarayonlarini o‘rganadigan fan” [I.]. Shu o‘rinda, qayd qilish joizki, o‘zbek tilini o‘qitish metodikasi, o‘z navbatida, tilshunoslik, tilning fonetika, grammatika, leksikologiya, semantika kabi bo‘limlari bilan chambarchas bog‘liqdir. Chet elliklarga o‘zbek tilini o‘qitish O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan so‘ng ancha faollashdi. Bu, albatta, yurtimizdagi mavjud barqaror iqtisodiy-siyosiy va ijtimoiy jarayon, shuningdek, o‘zaro madaniyatlararo muloqotning ta’siri natijasidir.

Hozirgi kunda O‘zbekiston Respublikasi va xorijiy mamlakatlar o‘rtasida madaniy-ma’rifiy almashinuv sezilarli darajada faollashib bormoqda. Shu bois, o‘zbek tiliga bo‘lgan o‘zaro qiziqishning ortishi, o‘z navbatida, ikki tomonlama ta’lim va madaniy almashinuvni yanada chuqurlashtirishga yordam bermoqda.

Til o‘rgatishda e’tibor briladigan asosiy tamoyillar quyidagilardan iborat:

1. Kommunikativlik tamoyil

O‘zbek tilini xorijiy til sifatida o‘qitishda eng muhim tamoyillardan biri kommunikativlik tamoyilidir. Bu tamoyil o‘quvchilarda real hayotiy vaziyatlarda muloqot qila olish ko‘nikmalarini shakllantirishga qaratilgan. Til birliklari alohida qoidalar sifatida emas, balki muloqot vositasi sifatida o‘rgatiladi. Darslarda dialoglar, rolli o‘yinlar, munozaralar va kundalik hayotga oid vaziyatlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

2. Tizimlilik va izchillik tamoyili

Til materiallari oddiydan murakkabga, osondan qiyinga qarab bosqichma-bosqich berilishi kerak. Fonetika, leksika va grammatika o‘zaro bog‘liq holda o‘rgatiladi. O‘quvchilar avval asosiy so‘z boyligi va sodda grammatik konstruksiyalarni o‘zlashtirib, keyinchalik murakkabroq til birliklariga o‘tadilar. Bu esa bilimlarning mustahkam shakllanishini ta‘minlaydi.

3. Onglilik va faollik tamoyili

Til o‘rganish jarayonida o‘quvchi faol ishtirok etishi lozim. Grammatik qoidalarni tushunish, yangi so‘zlarning ma‘nosini anglash va ularni amaliy nutqda qo‘llash o‘quvchining ongli faoliyatiga asoslanadi. Mashqlar, mustaqil topshiriqlar va ijodiy vazifalar o‘quvchilarning faolligini oshiradi.

4. Madaniyatlararo yondashuv tamoyili

Til va madaniyat bir-biri bilan chambarchas bog‘liqdir. O‘zbek tilini o‘rganayotgan xorijliklar nafaqat til birliklarini, balki o‘zbek xalqining urf-odatlarini, an‘analari, qadriyatlarini va milliy mentalitetini haqida ham ma‘lumot olishlari zarur. Bu yondashuv o‘quvchilarning madaniyatlararo kompetensiyasini rivojlantiradi va muloqot samaradorligini oshiradi.

5. Individuallashtirish tamoyili

Har bir o‘quvchining til o‘rganish sur‘ati, ehtiyoji va qobiliyati turlicha bo‘ladi. Shuning uchun ta‘lim jarayonida individual yondashuvni qo‘llash muhimdir. O‘qituvchi o‘quvchilarning yoshiga, ona tiliga, til bilish darajasiga va maqsadlariga mos metod va vositalarni tanlashi kerak.

6. Ko‘rgazmalilik tamoyili

Tilni o‘qitishda turli ko‘rgazmali vositalardan foydalanish o‘quv materialining yaxshiroq o‘zlashtirilishiga yordam beradi. Rasmlar, videolar, audio materiallar, jadvallar va interaktiv texnologiyalar yangi so‘z va grammatik birliklarni tushuntirishda samarali vosita hisoblanadi. Ayniqsa, boshlang‘ich bosqichda ko‘rgazmalilik muhim ahamiyat kasb etadi.

7. Amaliy yo‘naltirilganlik tamoyili

O‘qitish jarayoni o‘quvchilarning amaliy ehtiyojlariga mos bo‘lishi kerak. Til materiallari kundalik hayot, ta‘lim, ish faoliyati, sayohat va boshqa real kommunikativ vaziyatlarga asoslanishi lozim. Bu yondashuv o‘quvchilarning tilni o‘rganishga bo‘lgan motivatsiyasini oshiradi.

8. Integrativ yondashuv tamoyili

Tilning to‘rtta asosiy ko‘nikmasi — tinglab tushunish, gapirish, o‘qish va yozish — o‘zaro bog‘liq holda rivojlantirilishi zarur. Darslarda ushbu ko‘nikmalarni kompleks tarzda shakllantirish o‘quvchilarning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishga xizmat qiladi.

O‘zbek an‘analarini namoyish qilish va o‘zbek tilini o‘qitishning zamonaviy holati asosida xorijlik talabalarga o‘zbek tilining o‘ziga xos talaffuzini o‘rgatishda bir qator qiyinchiliklarni aniqlash mumkin. Avvalo, bu uch fonetik aralashuv: ingliz-rus-o‘zbek interferensiyasi hisoblanadi. Interferensiyaning akademik ta‘rifini “Lingvistik ensiklopedik lug‘at”da uchratish mumkin: “Interferensiya (lotinchadan *inter* - “o‘zaro, bir-biri bilan” va *ferio* - “tilga olmoq, ta‘sir qilmoq”) – mavjud til aloqalari jarayonida yoki ona tili sanalmagan tilni individual o‘zlashtirish orqali shakllanadigan ikki tillilik sharoitida til tizimlarining o‘zaro aloqasi; ona tilining ta‘siri natijasida me‘yor va ikkinchi til tizimidan og‘ishi (chetga chiqishi) bilan belgilanadi” [II.].

Chet tillarini o‘qitish metodikasida interferensiya avvalgi lingvistik tajribaning ongsiz ifodasi salbiy natijasi hisoblanadi. Ushbu hodisa o‘rganilayotgan chet tilini to‘laqonli idrok etishga to‘sqinlik qilishi tabiiy. Interferensiya tilning barcha jabhalari: fonetik, grammatik, leksik darajalarida namoyon bo‘ladi. Xorijlik talabalarga o‘zbekcha talaffuzni o‘rgatishda fonetik interferensiyaga, ya‘ni ona tili yoki sheva (dialekt) ta‘siri ostida yuzaga keladigan xatolar majmuiga alohida e‘tibor qaratish lozim [III]. “Fonetik interferensiyani tovush vositasidagi interferensiya (aralashuv) orqali namoyon bo‘ladigan biling (ikki tilli) fonetik tizimlarni hamda ikki, ba‘zan undan ortiq tillarning talaffuz me‘yorlarini (ikki tomonlama jarayon) yaratishda o‘zaro ta‘sirning yashirin va murakkab mexanizmi sifatida baholash mumkin.

Har qanday chet tilini, shu jumladan, o‘zbek tilini xorijiy til sifatida o‘rganish jarayonida grammatikaning alohida o‘rni shundaki, grammatika aynan zaruriy asos sanaladi, usiz chet tilidan to‘liq foydalanish, uni aloqa vositasi sifatida ishlatishning iloji yo‘q. Ona tili grammatikasi, bilamizki, ona tilida so‘zlashuvchining ongiga singib ketgan va faqat mulohaza yuritish, uni tahlil qilishga moyillik orqali (savol yuzaga kelganda: qanday to‘g‘ri aytsa bo‘ladi?) anglaniladi. Chet tilini o‘qitishda o‘qituvchining oldiga katta vazifa qo‘yiladi – o‘rganilayotgan tildan foydalanish shakl va qoidalari tizimini avtomatik, ya‘ni beixtiyor qo‘llash darajasiga yetkazish ilgari suriladi.

O‘zbek tilini o‘rganayotgan, shuningdek, boshqa madaniy muhitda tarbiyalangan chet ellik o‘quvchilar esa til kompetensiyasiga ega bo‘lmaydilar. Ular til sohiblari kabi grammatika qoidalariga binoan nutqni erkin qurish imkoniyatiga, nutq kompetensiyasiga ega emaslar. Shaxslararo muloqot doirasida ham kommunikativ (aloqa) jihatdan alohida murakkabliklarga duch keladilar.

O‘zbek tilini xorijiy til sifatida o‘qitish zamonaviy pedagogik va lingvodidaktik tamoyillarga asoslanishi lozim. Kommunikativlik, tizimlilik, onglilik, madaniyatlararo yondashuv, individuallashtirish, ko‘rgazmalilik, amaliy yo‘naltirilganlik va integrativlik tamoyillari ta’lim samaradorligini ta’minlaydi. Ushbu tamoyillar asosida tashkil etilgan darslar xorijlik o‘quvchilarning o‘zbek tilini puxta egallashiga, erkin muloqot qila olishiga va o‘zbek madaniyatini chuqurroq anglashiga yordam beradi. Shunday qilib, o‘zbek tilini xorijiy til sifatida o‘qitishda mazkur tamoyillarga amal qilish zamonaviy til ta’limining muhim shartlaridan biri hisoblanadi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Э.Г. Азимов А.Н. Щукин. Новый словарь методических терминов и понятий (теория и практика обучения языкам) М., 1999, 152.
2. Elektron resurs. O‘quv qo‘llanma. Falsafa. T., 2019.
3. Гумбольдт В. фон. Избранные труды по языкознанию. М., 1984.